

1-amaliy mashgʻulot

Mavzu: Ornitologiyaning predmeti va vazifalari

Darsning maqsadi: Talabalarga ornitologiya fanining mohiyati, predmeti, vazifalari, rivojlanish tarixi, mashhur ornitologlar faoliyati va fanning amaliy ahamiyati haqida tushuncha berish.

Kerakli jihozlar: Qushlarning rasmlari, plakatlari va sxemalari, Preparatlar (pat, tumshuq, tuxum qobigʻi, panja namunasi), Oʻquv va maʼlumotnoma adabiyotlar (ornitologiya, ekologiya boʻyicha), Namuna kolleksiyalari (turli muhitda yashovchi qushlar fotosuratlar), lupa

Nazariy tushuncha: Ornitologiyaning predmeti va vazifalari – umumiy maʼlumot
Ornitologiya — bu biologiya fanining bir tarmogʻi boʻlib, qushlarni oʻrganish bilan shugʻullanadi (1-rasm). U qushlarning tuzilishi, hayot faoliyati, yashash muhiti, koʻpayishi, tarqalishi va tabiatdagi oʻrnini tadqiq etadi.

Fanning predmeti – qushlarning morfologiyasi (tashqi tuzilishi), anatomiyasi (ichki tuzilishi), fiziologiyasi, ekologiyasi, evolyutsiyasi va sistematikasini oʻrganishdir.

Vazifalari:

Qush turlarini aniqlash va tasniflash;

Ularning yashash joylarini va ekologik ahamiyatini oʻrganish;

Qushlarning migratsiya yoʻnalishlarini kuzatish;


Qushlarni tabiatda asrash va muhofaza qilish;

Qushlardan inson faoliyatida (qishloq xoʻjaligi, tibbiyot, biologiya) foydalanish.



1-rasm. Ornitologiya fanining o‘rganish obyekti

Qushlarni o‘rganish tarixi qadimiy davrlardan boshlangan. Dastlabki kuzatuvlar qadimgi Misr, Yunoniston va Xitoyda amalga oshirilgan. Mashhur ornitologlar: K. Linney – qushlarni tizimli ravishda tasniflagan. Ch. Darvin – Galapagos orollaridagi qushlar misolida evolyutsiya nazariyasini ishlab chiqqan. A.E. Brem – “Hayvonlar hayoti” asarida qushlar haqida keng ma’lumot bergan. Ornitologiya fanining ahamiyati: Qushlar tabiiy muvozanatni saqlashda, hasharotlarni yo‘qotishda, urug‘larni tarqatishda va inson uchun estetik hamda ilmiy qimmatga ega. Shu bois ornitologiya ekologiya, biologiya va tabiatni muhofaza qilish fanlari uchun juda muhim soha hisoblanadi (2-rasm).



2-rasm. Ornitologiya fani rivojiga hissa qo‘shgan olimlar

Topshiriqlar

1-topshiriq:


Turli qush turlarini kuzatib, ularning tashqi tuzilishi, yashash muhiti va moslashuv xususiyatlarini jadvalga yozing.

Qush turi	Yashash muhiti	Tumshuq shakli	Moslanish xususiyatlari
Kabutar			
Musicha			
Turna			
Tovus			
Pingvin			

2-topshiriq:

Qush nomini rasmi bilan juftlashtiring.

1. Qaldirg'och
2. Chittak
3. Qarg'a
4. Laylak
5. Qirg'ovul
6. Kaklik



3-topshiriq: Qushlarning yashash muhiti: Qushlar qayerda yashaydi? Ularning asosiy yashash muhitlarini sanab bering va har birining qisqacha tavsifini yozing.

4-topshiriq:

Yuqoridagi jadvaldan 3 ta qushni tanlab, ularning moslashuv xususiyatlarini taqqoslang